



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

**Iqlim o'zgarishi bo'yicha moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va
xalqaro hamjamiyatning texnologiyalarni uzatish to'g'risidagi**

MILLIY AXBOROTNOMA



GREEN ECONOMY

Toshkent 2023

1. Iqlim o'zgarishi bo'yicha moliyalashtirish.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (BMTTD) o'zining "O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanishni moliyalashtirish" loyihasi orqali O'zbekiston Hukumatiga milliy rivojlanish rejalari/strategiyalari va barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirish uchun Integratsiyalashgan milliy moliyalashtirish tuzilmaviy asosini yaratishda ko'mak bermoqda. BMTTD loyihasi rivojlanishni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan davlat va xususiy resurslarni safarbar qilishga yordam berishga qaratilgan bo'lib, u strategiyalar/isllohotlarning 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy o'lchovlariga ta'sirini maksimal darajada oshirishga yordam berish uchun talab qilinayotgan strategik tadqiqotlar va salohiyatni oshirishni ta'minlaydi.

Loyihaning asosiy tadbirlaridan biri davlat budjetini shakllantirish jarayonining BRMlarni samarali tarzda amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashini ta'minlashdan iboratdir. Ushbu faoliyat, resurslar mos ravishda yo'naltirilmagan taqdirda milliy strategiyalar, siyosat va dasturlarda BRMlarni aks ettirish o'z-o'zidan natija bermasligini tan oladi. Shu tufayli Hukumatga milliy BRMlarni budjet jarayoniga samarali kiritishda yordam berish muhimdir.

BMTTD ko'magida O'zbekiston iqlim budjetini markirovkalash (IBM) modelini ishlab chiqish va joriy qilish jarayonidan o'tmoqda (13-BRM bilan bog'liq). IBM rejalashtirilgan yoki ijro qilingan budjetning alohida moddalarini iqlim uchun dolzarbligiga qarab "belgilashni" va keyin natijalarni nashr qilishni o'z ichiga oladi. IBMdan strategiya ishlab chiquvchilarni o'zlarining budjetlashtirish qarorlarida iqlim o'zgarishi masalalarini ko'proq hisobga olishga undashi; iqlim o'zgarishi bo'yicha strategiyalarni amalga oshirishdagi o'sishni kuzatishga yordam berishi; Hukumatning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq faoliyati bo'yicha manfaatdor tomonlar bilan aloqalarni yaxshilashi kutilmoqda. Vaqt o'tishi bilan bu afzalliklar mamlakatga iqlim sohasidagi moliyalashtirish uchun qo'shimcha resurslardan foydalanish va samarali dasturlash imkonini beradi.

IBM modelining dastlabki natijalari 2023 yil uchun bo'lgan Fuqarolar uchun budjetda yaqin orada chop qilinadi. Bu natijalar O'zbekistonda yaqinda o'tkazilgan Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq davlat xarajatlari va institutsional tahlil (CPEIR) natijalariga mos keladi. 1-jadvalda CPEIR tahlili natijalari ko'rsatilgan bo'lib, O'zbekiston Davlat budjetining qariyb 11 foizi iqlim o'zgarishi natijalarini qo'llab-quvvatlashga mo'ljallanganligini, ularning katta qismi iqlim o'zgarishiga moslashish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, tahlil natijasida Davlat budjetining 0,5 foizidan kam bo'lgan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq faoliyat natijalariga zarar


yetkazuvchi ("salbiy" xarajatlar) xarajatlari ham aniqlangan.

2022-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining 10 foizidan ortig‘i iqlim bilan bog‘liq faoliyatning yakuniy natijalarini ijobiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan deb baholangan.

2022 йил	Жами иқлим ўзгариши билан боғлиқ "ижобий" харажатлар	Иқлим таъсирини юмшатиш билан боғлиқ "ижобий" харажатлар	Иқлим ўзгаришига мослашиш билан боғлиқ "ижобий" харажатлар	Иқлим ўзгариши билан боғлиқ "салбий" харажатлар (барчаси таъсирни юмшатиш бўйича)
Миллиард сўм	26 302,4	612,7	25 414,8	1 006,0
Давлат бюджетида фоизи кўринишида	11,1%	0,3%	10,7%	0,4%

Biroq, O‘zbekiston Hukumati iqlim o‘zgarishiga qo‘shimcha ravishda bir qator boshqa ekologik (yoki "yashil") masalalar BRMning ajralmas qismi sifatida qaraydi. Iqlim o‘zgarishi masalalarini hal etish asosiy vazifalardan bo‘lib qolsa-da, davlat xarajatlari to‘g‘risidagi qarorlar bilan yumshatish yoki murakkablashtirish mumkin bo‘lgan atrof-muhit bilan bog‘liq bir qator o‘ta ustuvor vazifalar ham mavjud. Masalan, ilmiy tadqiqot doirasida to‘qqizta "sayyora chegaralari" aniqlangan: ular chuchuk suv holatining o‘zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, atmosfera aerzolining yuklanishi, okeanning kislotalanishi, yangi davr predmetlari (plastmassalar kabi), yer tizimining o‘zgarishi, biosfera yaxlitligi va iqlim o‘zgarishidan iborat. 1-rasmda ko‘rsatilgandek, ushbu to‘qqizta chegaradan oltitasi uchun, hech bo‘lmaganda, ba’zi o‘lchamlar bo‘ylab, xavfsiz sayyora chegaralari allaqachon me’yoridan oshib ketgan, yettinchi chegara bo‘yicha esa tadqiqot yakunlanmagan. Bu chegaralarning me’yoridan oshib ketishi bir qator BRMlarga, ayniqsa, "Mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish" bo‘yicha BRM 12; "Suv ostidagi hayot" bo‘yicha BRM 14 va "Er yuzidagi hayot" bo‘yicha BRM 15 ga bevosita taalluqlidir. Biroq, BRMlarning o‘zaro bog‘liqligi tufayli, bu shuningdek, ko‘plab boshqa BRMlarga erishishni tahdid ostiga qo‘yadi.

To'qqizta sayyoraviy chegaralarning oltitasida me'yordan allaqachon oshib ketilgan



Manba: Vang-Erlandsson va boshqa hamkor mualliflarning 2022 yilgi tahliliga asoslangan “Stokgolm barqarorlik markazi uchun azot” ([Azote for Stockholm Resilience Centre](#))

Shu sababli, O‘zbekiston o‘z budjeti iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan atrof-muhit muammolariga qanday ta’sir ko‘rsatishini hisobga olish uchun IBM yondashuvini kengaytirishni rejalashtirmoqda.

2023-yilda iqlimni moliyalashtirish va yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha bir qancha loyihalar amalga oshirilishi natijasida natijada xalqaro tashkilotlar mablag‘lari jalb qilinmoqda

Misol uchun 2023 yil 17-may kuni Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) Boshqaruvchilar kengashining “Muvofiqlikka sarmoya kiritish” mavzusidagi 32-yillik yig‘ilishi doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Yevropa ittifoqi va Fransiya taraqqiyot agentligi o‘rtasida “O‘zbekistonda

“yashil” iqtisodiyot hamkorligi bo'yicha” **10,2 mln yevro** miqdorida texnik ko'mak mablag'lari ajratilishiga qaratilgan kelishuv imzolandi. Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishga ko'maklashishga qaratilgan "Yashil" iqtisodiyot bo'yicha davlat siyosati sohasida qarz dasturi loyihasi amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur dastur doirasida qazilma yoqilg'ilari subsidiyalarini xatlovdan o'tkazish va qisqartirish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash bo'yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish, milliy miqyosda issiqxona gazlari tashlanmalarining monitoringi, hisoboti va tekshiruvi (MRV) tizimi joriy etish, “yashil” byudjetlashtirish va soliqqa tortishni joriy qilish hamda boshqa yo'nalishlarda ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 avgustdagi “Jahon banki ishtirokida “energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-271-son qarori bilan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash maqsadida “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash” (iCRAFT) loyihasini amalga oshirish uchun Jahon banki tomonidan O'zbekiston Respublikasiga **46,25 mln AQSh dollari** miqdorida mablag' ajratilishi ma'qullandi. Loyiha **20,0 mln AQSh dollari** miqdoridagi moliyalashtirish hajmiga ega “Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish shartnomasi” komponenti hamda **25,0 mln AQSh dollari** miqdoridagi moliyalashtirish hajmiga ega “Oqibatlarni yumshatish natijalarini sotib olish shartnomasi” komponentidan iborat. Ushbu loyiha doirasida ajratilgan mablag'lar quyidagi yo'nalishlarga sariflanishi belginangan.

Asosiy yo'nalishlar	Moliyalashtirishning taxminiy miqdori*(mln AQSh doll.)
1-komponent: Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish**	
1.1-subkomponent: UNFCCC talablari asosida monitoring, hisobot va tekshirish (MRV) tizimini ishlab chiqish	6,00
<i>Issiqxona gazlari kadastri (rasmiy statistika ma'lumotlariga aoslangan issiqxona gazlarining chiqarilishi va tutib qolinishini tavsiflovchi tizimlashtirilgan ma'lumotlar jamlanmasi)</i>	
<i>Issiqxona gazlari reyestri (issiqxona gazlarining chiqarilishi to'g'risida hisobotlarni o'z ichiga olgan axborot tizimi)</i>	
<i>Uglerod birliklari reyestri (“yashil” loyihalar ro'yxatdan o'tkaziladigan, uglerod birliklari va ular bilan bog'liq operatsiyalar hisobi yuritiladigan axborot tizimi)</i>	
Ma'lumot va axborot markazi	
1.2-subkomponent: “Yashil” o'sish va uglerod savdosi bo'yicha quyidagi vazirlik va idoralarning salohiyatini oshirish: Iqtisodiyot va	2,00

moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Strategik islohotlar agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi	
1.3-subkomponent: Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida Loyihani amalga oshirish guruhini tashkil etish (<i>issiqxona gazlari emissiyasi savdosi, loyihalarni ko‘rib chiqish, MRV, iCRAFT loyihalarini muvofiqlashtirish, monitoring yuritish va boshqalar</i>)	7,00
Milliy qonunchilik bazasini tayyorlash	
Loyihani amalga oshirish guruhi (markazi)ning nizomini tayyorlash	
UNFCCC talablari asosida loyihani ko‘rib chiqishning milliy qoidalarini tayyorlash	
Xalqaro bozorlarda birinchi uglerod sotilishiga qadar moliyalashtirish (ish haqi, texnika)	
“Yashil energiya” sertifikatlari yagona elektron platformasini ishga tushirish	
2-komponent: Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish natijalarini sotib olish	
2.1-subkomponent: Energy Sector Reforms (energiya regulyatori va UzPower Trade tashkil etish; energiya bozoriga o‘tish; energetika sohasidagi huquqiy, tartibga solish, rejalashtirish va institutsional islohotlar, shuningdek, yangi o‘quv markazini tashkil qilish va boshqalar)	18,00
2.2-subkomponent: Energiya tariflari (subsidiya) islohotlari va unga taalluqli bo‘lgan aloqa kampaniyalari	2,00
Samarali tarif siyosati, narxlarni shakllantirish va amalga oshirish	
Aloqa kampaniyalarini ishlab chiqish	
2.3-subkomponent: Ijtimoiy zaif uy xo‘jaliklarini energiya tariflari islohotlaridan himoya qilish bo‘yicha ijtimoiy yordam faoliyati (ijtimoiy xavfsizlik tarmog‘i tizimini, ijtimoiy ro‘yxatlarni va boshqalarni kuchaytirish)	5,00
2.4-subkomponent: Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish (uy-joylarga quyosh panellari, quyosh suv isitkichlarini o‘rnatish va boshqalar) hamda energiya samaradorligini oshirish choralari (issiqlik nasoslari, quyosh suv isitkich va sovitkich tizimi va boshqalar) ishlab chiqish va pilot loyihalarini amalga oshirish	5,00

2023-yil 3-dekabr kuni Dubay shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi 28-sessiyasi (COP28) doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi delegatsiyasi Gemaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) Markaziy Osiyo mintaqaviy dasturlar klasteri koordinatori Torsten Brezina bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda GIZ hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi o‘rtasida qiymati **9 mln yevrolik grand mablag‘i** “O‘zbekistonda “yashil” sanoatlashtirish bo‘yicha xususiy sektorni va iqtisodiy siyosatlar bo‘yicha maslahatlar” loyihasini amalga oshirishga doir kelishuv imzolandi. Loyiha issiqxona gazlarini o‘lchash va sertifikatlash bo‘yicha ekspert bilimlarini taqdim etadi, O‘zbekistonning CO2

sertifikatlari bilan xalqaro savdoda ishtirok etishini va Yevropa ittifoqining Transchegaraviy tartibga solish mexanizmiga (CBAM) moslashishini qo‘llab-quvvatlaydi. Xususiyl sektor resurslarni tejaydigan, barqaror ishlab chiqarish uchun “yashil” texnologiyalarni moslashtirishda, masalan, aylanma (sirkular) iqtisodiyot va “yashil” sanoat zonalarini modellari doirasida qo‘llab-quvvatlanadi. Shuningdek, ushbu loyiha intensiv salohiyatni oshirish, ish joyida o‘qitish, xalqaro aloqalar va bilimlarni uzatish orqali barqaror “yashil” iqtisodiyot va sanoat siyosatini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi.



BMTning Taraqqiyot dasturi ko‘magida amalga oshirilgan yana bir loyiha doirasida “O‘zbekistonda budjetni “Yashil” markirovkalash (BYAM) metodologiyasi va yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Loyihaning asosiy tadbirlari:

- davlat budjetini shakllantirish jarayonining barqaror rivojlanish maqsadlarini samarali tarzda amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlashini ta’minlash;
- O‘zbekistonda “Iqlim budjetini markirovkalash” modelini ishlab chiqish va joriy etish hisoblanadi.

“Yashil” budjetlashtirish bo‘yicha sohalar kesimida markirovka qilingan mablag‘lar jadvali, 2024 yil uchun prognozi, trln. so‘m

		Prognoz	Ijobiy	Salbiy	Ta’sirga ega emas
	Xarajatlar, jami	312,8	34,2	0,9	277,7
	<i>Jami xarajatlarga nisbatan, foizda</i>	<i>100,0</i>	<i>10,9</i>	<i>0,3</i>	<i>88,8</i>
1.	Ijtimoiy xarajatlari	151,4	0,7		150,7
2.	Iqtisodiyot xarajatlari	36,8	20,2	0,9	15,8
3.	Investitsiya xarajatlari	31,7	12,1		19,7
4.	Davlat boshqaruvi, hokimiyati, adliya, prokuratura, sud va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	19,8	1,0		18,8
5.	Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari	2,1			2,
6.	Davlat qarzig a xizmat ko‘rsatish va qoplash xarajatlari	16,4			16,4
7.	Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini, shuningdek ayrim xizmat turlari bo‘yicha tariflarni oshirish bilan bog‘liq xarajatlari	9,6			9,6
8.	Boshqa xarajatlari	44,9	0,2		44,7



O'zbekiston Respublikasi ilk bor **4,25 trln** so'm miqdoridagi "yashil" suveren xalqaro obligatsiyalar hamda **660 mln dollar** miqdoridagi xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasida joylashtirdi. "Yashil" obligatsiyalar bo'yicha kelib tushadigan mablag'lar suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, temir yo'l transporti va metro

transportini rivojlantirish, sanitar tozalash ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta'minlash, shamol eroziyasiga va suv xo'jaligi obyektlarining qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlari barpo etish kabi yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi. Bundan tashqari, BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish monitoringining shaffofligini ta'minlash, investorlar va keng jamoatchilikka investitsiyalarning O'zbekistonning "yashil" va barqaror rivojlanish sohasidagi vazifalariga ta'siri to'g'risida barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha ishlar olib boriladi.

2. 2023-yilda Yashil iqtisodiyot hamda iqlim o'zgarishini oldini olish, kurashish va moslashish bo'yicha salohiyatni oshirishga qaratilgan seminar treninglar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarorida yashil iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, davlat organlari boshqaruv xodimlarining boshqaruv va rejalashtirish salohiyatlarini oshirish, yashil o'sish choralarini rejalashtirish, amalga oshirish borasida mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining salohiyatini oshirish bo'yicha seminarlar tashkil qilish hamda Yashil» o'sish choralarini rejalashtirish, amalga oshirish borasida mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining salohiyatini oshirish va boshqa yo'nalishlarda salohiyatni oshirish bo'yicha seminar treninglar tashkil etish belgilangan. Shu sababli 2023 yilda ushbu yo'nalishda iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan seminarlar tashkil qilindi.

2023 yil iyun oyida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Davlat boshqaruv akademiyasi bilan birgalikda yashil iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, davlat organlari boshqaruv xodimlarining boshqaruv va rejalashtirish salohiyatlarini oshirish bo'yicha

3 kunga mo'ljallangan seminar tashkil qilindi. Seminarda vazirlik va idoralarning malakali va masul mutaxassisleri hamda maxalliy viloyat hokimiyatlarining mas'ul hodimlari ishtirok etishdi. Mazkur seminarda ishtirokchilarga yashil iqtisodiyotning asossiy tshunchasi va maqsadlari bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi.

20-22-iyun kunlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Davlat boshqaruv akademiyasi, va Savdo sanoat palatasi bilan hamkorlikda "Yashil" o'sish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni rejalashtirish, amalga oshirish va natijadorlikni doimiy baholab borish bo'yicha 3 kunga mo'ljallangan onlayn seminar trening tashkil qilindi. Seminar trening maqsadi "yashil" iqtisodiyotga o'tishni rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni doimiy baholab borish bo'yicha davlat va xususiy tashkilotlarning texnologik salohiyatlarini mustahkamlash hamda "yashil" o'sish bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi mahalliy trenerlarni tayyorlash hisoblanadi. Seminarda 30 ga yaqin davlat va xususiy tashkilotlarning 160 tadan ortiq malakali mutaxassisleri, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining hududiy boshqarmalari davlat inspektorlari, respublikadagi oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedralari professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi. zkur seminar davomida vazirlik va idoralar mas'ul xodimlari tomonidan quyidagi mavzularda ma'ruzalar qilindi:

- "Yashil" iqtisodiyot maqsadi va vazifalari;
- O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan chora-tadbirlar, ustuvor yo'nalishlar va asosiy maqsadlar;
- Issiqxona gazlarini iqlim o'zgarishiga ta'siri hamda iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish;
- O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya menejmenti orqali energiya samaradorligini sezilarli darajada;
- Tabiat resurslaridan barqaror va samarali foydalanish;
- "Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari va instrumentlari.

Joriy yil sentabr oyida Iqtisodiyot va moliya vazirligi BMTning Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti bilan hamkorlikda "Iqlimga moslashtirilgan qishloq xo'jaligini moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish va ilgari surish" hamda "yashil" iqtisodiyotga oid ma'lumotlarni yig'ish va



ulardan foydalanish mavzusida seminar tashkil qildi. Mazkur tadbirda vazirlik va idoralarning malakali mutaxassislari hamda respublikadagi mahalliy banklarning "yashil" iqtisodiyot va "yashil" moliyalash bo'yicha mas'ullari ishtirok etishdi. Seminardan ko'zlangan maqsad – vazirlik va idoralar hamda mahalliy banklar xodimlarining "yashil" iqtisodiyot va "yashil" moliyalashga doir ma'lumotlardan hamda iqlimga moslashtirilgan qishloq xo'jaligini moliyalashtirish mexanizmlaridan samarali foydalanishni o'rgatish. Seminar davomida Iqtisodiyot va moliya vazirligi, BMTning Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti, Markaziy bank, Qishloq xo'jaligi vazirligining mas'ul mutaxassislari tomonidan seminar mavzusiga doir taqdimotlar o'tkazildi.

25-sentabr kuni "Yashil" iqtisodiyotga o'tishni modellashtirish va prognozlashtirish vositalarini ishlab chiqish hamda vazirlik va idoralar xodimlarini ulardan foydalanishga o'rgatish maqsadida Jahon banki bilan hamkorlikda seminar tashkil etildi.



Tadbirlarda "yashil" iqtisodiyotga o'tishni modellashtirish va prognozlashtirish vositalari ishlab chiqilishida ishtirok etgan Jahon banki mutaxassislari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda mazkur vositalardan foydalanuvchi boshqa vazirlik va idoralarning mutaxassislari ishtirok etishdi. Ma'lumot uchun, Jahon banki ekspertlarini jalb qilgan holda uzoq muddatli prognozlashtirish yo'nalishida 2050-yilgacha mamlakatni kam uglerodli rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilgan. Tegishli vazirlik va idoralar mutaxassislari vositadan foydalanish o'rgatildi. Shuningdek, uni ishlatishning afzalliklari, har bir tarmoqning ustuvor yo'nalishlari va prognozlashtirilgan maqsadli ko'rsatkichlari integratsiyasi asosida milliy iqtisodiyot darajasida kam uglerodli rivojlanish ssenariylari tushuntirildi.

27–29-sentabr kunlari Toshkent shahrida Yevropa Ittifoqining xorijiy ekspertlari tomonidan tabiatga asoslangan moslashuv harakatlari va yechimlari, chiqindi va oqova suvlarni boshqarish, energiya samaradorligi hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, iqlim loyihalarining ko‘lami va tuzilishini aniqlash



mavzusida GCoM loyihasi doirasida navbatdagi seminar tashkil etildi. Mamlakatimizda 2022-yil fevral oyidan boshlab Yevropa Ittifoqi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamkorligida “Hokimlarning global kelishuvi kotibiyatini iqlim va energetika bo'yicha qo'llab-quvvatlash” (Support to the Secretariat of the Global Covenant of Mayors for the climate and energy — GCoM) loyihasi amalga oshirilmoqda. GCoM loyihasining asosiy maqsadi shahar va tumanlar darajasida iqlim o'zgarishining oldini olish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, “yashil” iqtisodiyot hamda “yashil” energetikani rivojlantirish hisoblanadi. Mazkur loyiha doirasida 10 000 dan ortiq shaharlar mahalliy tashabbuslari, innovatsion moliyalashtirish modellari va barqaror infratuzilma orqali iqlim hamda iqtisodiy inqirozlarni hal qilish uchun milliy va xalqaro institutlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu loyihada Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahri, Xorazm viloyatining Urganch shahri, Buxoro viloyatining Buxoro shahri, Namangan viloyatining Namangan shahri va Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumani ishtirok etmoqda. Bugungi kunga qadar Yevropa Ittifoqining xalqaro va mahalliy ekspertlari, tegishli hokimliklarning mas’ul xodimlari va muttasadi vazirlik, idoralar bilan birgalikda 5 ta shahar (tuman)ning har biri bo‘yicha CO2 tashlamalarining miqdori aniqlandi va ularni kamaytirish maqsadida “Iqlim bo‘yicha harakatlar rejasi”ni ishlab chiqish ishlari yakunlanmoqda.



5-oktabr kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jahon banki bilan hamkorlikda mamlakatimiz iqtisodiyotini dekarbonizatsiyalash va kam uglerodli rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyasi (LTS)ni ishlab chiqish variantlari va ssenariylari mavzusida seminar tashkil etildi. Ma'lumot uchun: Parij bitimining 4-

moddasiga muvofiq, mamlakatlar 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishishga qaratilgan o'zlarining uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqishlari lozim. Strategiya

doirasida iqtisodiyot tarmoqlarida uglerod neytralligiga erishish uchun amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbir va loyihalar, talab qilinadigan kapital qo'yilmalar hajmi, ko'rsatilgan investitsiya rejasini tarmoqlar kesimida tayyorlash belgilangan. Seminar davomida Jahon bankining mazkur strategiyani ishlab chiqqan guruhi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar hamda ilmiy-tadqiqot institutlarining mutaxassislariga taqdimotlar o'tkazildi hamda strategiya doirasida ishlab chiqilgan kam uglerodli rivojlanish variantlari va ssenariylari yuzasidan to'liq ma'lumotlar taqdim etildi. Xususan, energetika, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, chiqindilarni boshqarish, sanoat tarmoqlarida bugungi kundagi mavjud holat hamda uzoq muddatli rivojlantirish va dekarbonizatsiyalash imkoniyatlari atroflicha muhokama qilindi hamda vazirlik va idoralar mutaxassislaridan muhim tavsiya va takliflar olindi.

16-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasi (UNFCCC) bilan hamkorlikda "Qisqartirilgan issiqxona gazlari xalqaro savdosini tashkil etishning ilg'or amaliyotlari va mexanizmlari"



mavzusida seminar o'tkazildi. Unda Konsepsiya doirasida qabul qilingan Parij bitimi 6.4-moddasi bo'yicha Kuzatuv kengashi raisi Olga Gassan-Zade, Germaniya hamkorlik tashkilotining (GIZ) iqlim bo'yicha mutaxassisi Sergey Makarov, vazirlikning "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va rivojlantirishni muvofiqlashtirish boshqarmasi mutaxassislari hamda mahalliy vazirlik va idoralar vakillari ishtirok etishdi. Ma'lumot uchun, bugungi kunda O'zbekistonda Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq qisqartirilgan issiqxona gazlarining xalqaro savdosi mexanizmini yo'lga qo'yish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi qonun loyihasi tayyorlanmoqda. Bunda, issiqxona gazlari chiqarilishini hisobga olish, ularning davlat kadastrini hamda uglerod birliklarining reyestrini yuritish yo'lga qo'yilishi, tarmoqlar kesimida issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlarini belgilash, bu bo'yicha faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi ko'zda tutilgan. Seminar davomida Kuzatuv kengashi raisi Olga Gassan-Zade vazirlik va idoralarning mutaxassislariga qisqartirilgan issiqxona gazlarining xalqaro savdosini tashkil etish, sohada duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar, sohani rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlarda olib borilayotgan ishlar hamda

O‘zbekiston sharoitida ushbu mexanizmlarni joriy etish imkoniyatlari haqida taqdimot o‘tkazib, kerakli tushuntirishlar berdi.

25-oktabr kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligida “O‘zbekistonda iqlim va tabiiy ofatlar xavfini baholash va barqarorlikni oshirish” loyihasi doirasida amaliy seminar bo‘lib o‘tdi. Mazkur seminar vazirlik va idoralar mutaxassislarini iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfini baholash hamda barqarorlikni ta‘minlash chora-tadbirlari bo‘yicha o‘qitish maqsadida tashkil etildi. Tadbirda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, suv xo‘jaligi vazirligi, FVV, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi vakillari ishtirok etdi. Trening Osiyo taraqqiyot bankining (OTB) mamlakat maslahat missiyasida ishtirok etuvchi ekspertlar – Tabiiy ofatlar xavfini boshqarish bo‘yicha katta mutaxassis Stiven Goldfinch, Geofizik xavflar bo‘yicha mutaxassis Yannis Furniadis tomonidan o‘tkazildi. OTB vakillari 23-oktabr kuni Qashqadaryo viloyatida bo‘lib o‘tgan “Iqlim o‘zgarishiga chidamli investitsiyalar bo‘yicha moslashuvchan qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash” mavzusidagi mamlakat maslahat missiyasi yakunlari bilan seminar ishtirokchilari bilan o‘rtoqlashdi.



Mazkur missiya doirasida Kitob tumanida mahalliy hokimiyat organlari va manfaatdor tashkilotlar vakillari bilan bir qator uchrashuvlar o‘tkazildi.

21-noyabr kuni Toshkent shahridagi Xalqaro biznes markazida Iqlim o‘zgarishi va rivojlanish to‘g‘risidagi milliy hisobotning taqdimotiga bag‘ishlangan yuqori darajadagi tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo‘chqorov kirish so‘zi bilan

ochib, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy strategik maqsadi mamlakatimizni daromadi o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatga aylantirishdan iborat ekanini qayd etdi. Mazkur hisobotda energiya, suv, yer va boshqa tabiiy resurslardan oqilona hamda samarali foydalanish, ifloslanish, iqlim va atrof-muhitga ta‘sirlarni kamaytirish hamda iqlim o‘zgarishi ta‘siriga chidamliligini oshirishni ta‘minlovchi tanlangan o‘sish modeli bo‘yicha aniq yechimlar taklif etiladi. Hisobot iqtisodiyotning energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, sanoat kabi muhim tarmoqlarini qamrab oladi. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ish bilan ta‘minlash va ijtimoiy qo‘llab-

quvvatlash masalalariga, shuningdek, “yashil” urbanizatsiya masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu milliy hisobot taqdim etadigan imkoniyatlar quyidagilar:

barqaror rivojlanish maqsadlarini hisobga olgan holda hukumatlar, hamkorlar va fuqarolarning iqlim o’zgarishi sohasida muvofiqlashtirilgan ishtirokini ta’minlash uchun platforma yaratish;

“yashil” iqtisodiyotga o’tish uchun xalqaro moliya institutlari, rivojlanish tashkilotlari va xususiy sektor resurslarini samarali safarbar qilish.




28–29-noyabr kunlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Germaniya hamkorlik tashkiloti (GIZ) bilan hamkorlikda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida “Yashil” iqtisodiyotga o’tish va “yashil” o’sish bo’yicha seminar-trening tashkil etildi. Mazkur seminarni tashkil etishdan maqsad respublika va mahalliy davlat ijro etuvchi

organlarining “yashil” iqtisodiyotga o’tishini rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni doimiy baholab borish bo’yicha salohiyatini oshirish hamda ushbu yo’nalishda doimiy faoliyat yurituvchi mahalliy trenerlar tayyorlash hisoblanadi. Tadbirda Germaniya hamkorlik tashkiloti hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakillari, vazirlik va idoralar, mahalliy korxona va tashkilotlarning “yashil” iqtisodiyot bo’yicha mas’ul etib belgilangan xodimlari ishtirok etishdi. Seminarda “yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta’minlash, issiqxona gazlarini qisqartirish va ularning savdosi, xalqaro uglerod bozorlari, emissiya savdosi tizimlari (ETS, CDM, JCM), Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG), xalqaro va mahalliy ekologik huquq, “yashil” urbanizatsiya, shaharsozlik, binolar va qurilish, infratuzilma, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo’yicha ilg’or xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati, iqlim moliyasi va vositalari, “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari hamda instrumentlari, “yashil” moliya, iqlimga chidamli qishloq xo’jaligini moliyalashtirish, “yashil” kreditlar va obligatsiyalar kabi mavzularda taqdimotlar o’tkazildi. Seminar so’ngida ishtirokchilar sertifikatlar bilan taqdirlandi.

3. Iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar texnologiyalarini O'zbekistonda joriy qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

O'zbekistonda Yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi Yashil iqtisodiyot onlayn platformasi tashkil etirdi. Maskur platforma Yashil iqtisodiyotga tegishli ma'lumotlar bazasi, xizmatlar va turli xil instrumentlarni o'z ichiga oladi va birlashtiradi. Ushbu platformadagi ma'lumotlar respublikadagi davlat idoralari tomonidan kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllanadi hamda davlat idoralari, xorijiy investorlar va axoli uchun yashil iqtisodiyotga tegishli ma'lumotlardan foydalanish uchun ochiq bo'ladi. Xozirgi kunda mazkur platformani Germaniya hamkorlik tashkiloti va Osiyo taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikda yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.



Iqtisodiyot va moliya vazirligi Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda O'zbekistonda Iqlim xavflarini baholash instrumentlari loyihasini amalga oshirmoqda. Iqlim va tabiiy ofatlar xavfini tekshirish vositalari - bu loyiha va milliy/siyosat vositalarini o'z ichiga olgan xavfni tekshirish vositalari to'plamini o'z ichiga olgan veb-sayt hisoblanadi. Loyiha vositalariga qishloq xo'jaligi, suv toshqinidan himoya qilish, energiya, sog'liqni saqlash, yo'llar, suv va umumiy vositalar kiradi. Vosita tabiiy ofat va iqlim barqarorligini rivojlantirish uchun integratsiyalashgan mamlakatga oid ma'lumotlar va onlayn ma'lumot manbalaridan

foydalangan holda, loyihani loyihalashning dastlabki bosqichlarida iqlim va ofat xavfini aniqlashga yordam berish uchun mo'ljallangan. Vosita turli miqyosdagi loyihalar uchun potentsial xavflarning jiddiyligini aniqlaydigan rejalashtirish jarayonlarini ishlab chiqishda yordam beradi; milliy rejalaridan individual loyiha investitsiyalarigacha; va iqlim o'zgarishi uchun potentsial xavflar bilan bir qatorda mustahkamlangan chidamlilik imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan fikrlashni rag'batlantirishga yordam beradi. Ushbu vosita yangi tashkil etilgan Yashil iqtisodiyot onlayn platformasiga integratsiya qilish ishlari olib borilmoqda.



ular barqaror rivojlanish uchun kapital zaxiralari pasayish holatida emasligi, ya'ni tabiiy resurslarning sifati va miqdoriga bo'lgan talabning barqaror bo'lishi kerakligi tushunchasini ham o'z ichiga oladi. OECDning Yashil o'sish ko'rsatkichlari tizimi to'rtta asosiy mavzularni o'z ichiga oladi, ya'ni atrof-muhit va resurslar unumdorligi, tabiiy aktivlar bazasi, hayotning ekologik sifati va iqtisodiy imkoniyatlar va siyosatga javoblar. Atrof-muhit va resurslar unumdorligining birinchi mavzusi tabiiy boyliklardan ishlab chiqarish uchun samarali foydalanishni anglatadi. Asosiy maqsad - foydalanishni kuzatish atrof-muhit va tabiiy resurslarning samaradorligi. Biroq, tabiiy resurslar tugasa va muqobil resurslarni topish qiyin bo'lsa, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash qiyin bo'ladi. Shu sababli, ikkinchi mavzu o'sish xavfini keltirib chiqaradigan aktivlar poydevoridagi tebranishlarni aks ettirish uchun tabiiy resurslarning asosiga qaratilgan. Ushbu aktivlarning yaxlitligi barqaror bo'lishi kerak barqaror o'sish uchun. Uchinchi mavzu - tabiiy boyliklarning tugashi natijasida kelib chiqadigan xarajatlar yoki iqtisodiy yo'qotishlarni ko'rsatadigan va atrof-muhitning inson turmush darajasiga ta'sirini aks ettiruvchi yashash muhitining sifati. To'rtinchi mavzu iqtisodiy imkoniyatlar va siyosatdan foydalanadigan siyosat javoblarini o'z ichiga oladi yashil o'sish siyosatining samaradorligini tekshirish uchun yashil o'sish masalalariga javob berish. Umuman olganda, atrof-muhit va resurslar unumdorligi iqtisodiy faoliyatdagi "ishlab chiqarish" va "tabiiy resurslar" o'rtasidagi munosabatlarni anglatadi. Atrof-muhitning turmush darajasi iqtisodiy faoliyatdagi "iste'mol" va "tabiiy resurslar" o'rtasidagi munosabatni bildiradi. Iqtisodiy imkoniyatlar va siyosatga javoblar iqtisodiy faoliyat va tabiiy resurslar negizida qurilgan munosabatlarni nazarda tutadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jahon banki bilan hamkorlikda iCRAFT loyihasi doirasida O'zbekistonda energetika sohasi uzun Monitoring hisobot va tekshiruv (Measurement Reporting and Verification – MRV) tizimini yoriy qildi. Monitoring, hisobot va tekshirish tizimi Parij kelishuvi doirasida taqdim etilgan Milliy Miqyosda Belgilangan Hissalarni (NDC) samarali amalga oshirishda markaziy rol o'ynaydi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan hamkorlikda o'zbekistonda yashil o'sish indikatorlarini joriy qilish loyihasini amalga oshirdi/ Yashil o'sish ko'rsatkichlari "o'sish" va "yashillik" o'rtasidagi aloqalarni bildiradi. An'anaviy iqtisodiy o'sish nazariyalarida "hosildorlik" tushunchasini kengaytirish bilan bir qatorda,



Emissiya tendentsiyalarini aniqlash, issiqxona gazlarini kamaytirish bo'yicha sa'y- harakatlarni qayerga yo'naltirish kerakligini aniqlash, kamaytirishni qo'llab-quvvatlashni kuzatish, kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar NDC doirasida rejalashtirilganidek yoki yo'qligini baholash va emissiyalarni

qisqartirish samaradorligini tasdiqlash, olingan yordamning ta'sirini baholash va kamaytirishda erishilgan yutuqlarni monitoring qilish uchun zarur. Hisobot va tekshirish shaffoflik, yaxshi boshqaruv, hisobot berish va natijalarning yaxlitligini ta'minlash hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Nima o'lchanadi (Measurement):

Issiqxona gazlari emissiyasi va singishi hajmi, emissiyalarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosiy emissiyalarga nisbatan emissiyalarni kamaytirish (yoki yutilishni yaxshilash) miqdori, yumshatish va moslashish, SDG va tegishli imtiyozlarga erishish yo'lidagi taraqqiyot, olingan qo'llab-quvvatlash miqdori (moliya, texnik yordam, texnologiyalar transferi, o'qitish).

Qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha hisobot beriladi (Reporting):

Issiqxona gazlari chiqindilari va yutilish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar (inventarizatsiya, ikki yillik hisobotlar), bazaviy emissiyalar bilan solishtirganda yumshatish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda emissiyaning kamayishi (yoki yutilishining yaxshilanishi) miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar, yumshatish choralariga erishishda muvaffaqiyat, barqaror rivojlanish maqsadlari, institutsional o'zgarishlar va harakatlar, cheklovlar va qo'llab-quvvatlash ehtiyojlari haqida ma'lumot.


Nima tasdiqlangan (Verification):

Hisobotda ko'rsatilgan barcha miqdoriy va sifat ma'lumotlari, oqibatlarini yumshatish bo'yicha harakatlar va ularning natijalari, shuningdek olingan va taqdim etilgan yordam, ma'lumotlar mamlakat va xalqaro protseduralar doirasida tekshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023 yil 19-oktabrdagi PQ-339-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Koreya Respublikasi Hukumati o'rtasida Iqlim o'zgarishi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi hadli bitim tasdiqlandi. Mazkur Hadli Bitimning maqsadi (keyingi o'rinlarda - Bitim) Tomonlarning

issiqxona gazi tashlanmalarini kamaytirish va/yoki bartaraf qilish hamda iqlim o'zgarishining salbiy ta'siriga moslashish salohiyatini mustahkamlash va shu orqali Tomonlarning past uglerodli hamda iqlimga chidamli iqtisodiyotga o'tishini osonlashtirishdan iborat. Shuningdek, Tomonlar mazkur Bitimning 2(d)-moddasiga asosan iqlim bilan bog'liq fan va texnologiya sohasidagi hamkorlik ikki Tomonga ham issiqxona gazlari ta'sirini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashish texnologiyalariga asoslangan iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va ularning NDSlarini bajarish imkonini berishi mumkinligi belgilangan. Shu bilan birga, Tomonlar mazkur Bitimni amalga oshirish uchun fan va texnologiyalar sohasida hamkorlik bo'yicha kichik qo'shma qo'mita tashkil etishga kelishib olishlari mumkinligi belgilangan.

2022-yil oktabr oyida O'zbekiston hukumati va Yaponiya hukumati o'rtasida Qo'shma kreditlash mexanizmi (Joint Credit Mechanism – JCM) bo'yicha hamkorlik Memorandumi imzolandi. JCM yapon kompaniyalari tomonidan investitsiyalar orqali dekarbonizatsiylashning yetakchi texnologiyalari va infratuzilmasi va boshqalarning tarqalishiga yordam berish va shu bilan hamkor mamlakatlarda issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish yoki qisqartirish va barqaror rivojlanishga hissa qo'shishni maqsad qilgan. JCM Yaponiya hissalarini miqdoriy jihatdan baholash va uglerod kreditning bir qismini olish orqali ikkala mamlakatning NDClariga erishishga hissa qo'shadi. 2023 yil iyul holatiga ko'ra, JCM hamkorlik hujjati 27 davlat bilan imzolangan.



JCMni ilgari surish maqsadida JCM loyihalarini (Yaponiya Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi (MoEJ) JCM namunaviy loyihalari), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) maqsadli jamg'armasi, Yangi energiya va sanoat texnologiyalarini rivojlantirish tashkiloti tomonidan JCM ko'rgazmali loyihalarini amalga oshirish uchun yordam ko'rsatilmoqda. (NEDO), texnik-iqtisodiy asoslar va boshqalar va JCM loyiha aylanishi bilan bog'liq ma'muriy jarayonlarni qo'llab-quvvatlash.